

RAQS ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI YOSH AVLODGA YETKAZISH**Maxammadjonova Muslima**

O'zbekiston davlat Xoreografiya akademiyasi

"Xoreografiya jamoalari rahbari" bo'limi 2-kurs talabasi.

Muxamedova M.A.

Ilmiy rahbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22134102>

Bugungi globallashuv davrida har bir xalqning o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylash va uni yosh avlodga yetkazish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki milliy qadriyatlar xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy merosi va madaniy o'zligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ularni saqlash va rivojlantirish xalqning kelajak taraqqiyoti uchun muhim zamin yaratadi. Bu jarayonda san'at, ayniqsa raqs san'ati alohida o'rin egallaydi. Chunki raqs inson qalbining eng nozik kechinmalarini ifodalash bilan birga, xalqning urf-odatlarini, an'analarini va ma'naviy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtiradi.

Milliy qadriyatlar deganda xalqning asrlar davomida shakllangan urf-odatlarini, odob-axloqi, turmush tarzi, dunyoqarashi va madaniyati tushuniladi. Har bir xalq o'zining qadriyatlari bilan ajralib turadi. O'zbek xalqining ham boy va serqirra qadriyatlari mavjud bo'lib, ular xalqimizning tarixiy rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Bu qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishda san'atning o'rni beqiyosdir.

Raqs san'ati insoniyat tarixida eng qadimiy san'at turlaridan biri sifatida shakllangan.

Tarixiy manbalarga ko'ra, ibtidoiy jamiyat davrida odamlar tabiat hodisalariga munosabatini, quvonch va qayg'ularini raqs orqali ifoda etgan. Keyinchalik raqs marosim, bayram va tantanalarning ajralmas qismiga aylangan. Shu tariqa raqs san'ati nafaqat estetik, balki ijtimoiy va ma'naviy ahamiyat kasb eta boshlagan.

O'zbek milliy raqs san'ati ham qadimiy tarixga ega. O'zbek raqslari xalqning turmush tarzi, mehnati, tabiatga bo'lgan munosabati va ichki dunyosini ifoda etib kelgan. Ayniqsa, Xorazm, Buxoro va Farg'ona-Toshkent raqs maktablari xalqimizning boy madaniy merosi sifatida alohida qadrlanadi. Bu maktablarning har biri o'ziga xos uslub, harakat va ifoda vositalariga ega.

Masalan, Xorazm raqslari jo'shqin va kuchli harakatlari bilan ajralib turadi. "Lazgi" raqsi esa insonning ichki energiyasi va hayotga muhabbatini aks ettiradi. Farg'ona-Toshkent uslubi esa noziklik, latofat va mayin harakatlari bilan ajralib turadi. Buxoro uslubi esa o'zining viqori va estetik mukammalligi bilan ajralib turadi. Bu raqslarning har biri yosh avlodga xalqimizning boy ma'naviy olamini yetkazishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Milliy raqslarning har bir harakati ma'lum bir ramziy ma'noga ega. Masalan, qo'l harakatlari mehr-muhabbatni, tabassum va yuz ifodalari samimiyatni, gavda holatlari esa hurmat va odobni ifoda etadi. Bu esa raqsning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki yoshlar bu orqali nafaqat harakatlarni, balki ma'naviy qadriyatlarni ham o'zlashtiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda, raqs yosh avlodni tarbiyalashning samarali vositalaridan biridir. Raqs mashg'ulotlari orqali bolalarda intizom, sabr-toqat, mehnatsevarlik va mas'uliyat hissi shakllanadi. Har bir harakatni mukammal bajarish uchun ko'p marta takrorlash zarur bo'ladi. Bu esa yoshlarni mashaqqatdan qo'rqqanlikka va maqsad sari qat'iyat bilan intilishga o'rgatadi.

Psixologik jihatdan ham raqsning ahamiyati katta. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqs insonning ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

U stressni kamaytiradi, kayfiyatni yaxshilaydi va insonning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Ayniqsa, o'sib kelayotgan yoshlar uchun bu juda muhimdir, chunki ular ko'pincha turli ruhiy bosimlarga duch keladilar.

Raqs yoshlarning jismoniy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. U tanani chiniqtiradi, mushaklarni rivojlantiradi, moslashuvchanlikni oshiradi va organizmning umumiy sog'lomligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli raqs nafaqat san'at, balki sog'lom turmush tarzining ham muhim qismidir.

Bugungi kunda globallashuv jarayonida yoshlar orasida chet el madaniyatiga qiziqish ortib bormoqda. Bu tabiiy holat bo'lsa-da, ba'zida milliy qadriyatlardan uzoqlashishga olib kelishi mumkin. Ana shunday vaziyatda milliy raqs san'ati yoshlarni o'z ildizlariga qaytaruvchi, ularda milliy o'zlikni shakllantiruvchi kuchli vosita hisoblanadi.

Raqs orqali yosh avlodga vatanparvarlik hissini ham singdirish mumkin. Chunki milliy raqslarni o'rganish jarayonida yoshlar xalqining tarixini, urf-odatlarini va madaniyatini chuqurroq anglaydi. Bu esa ularda milliy g'urur va Vatanga muhabbat tuyg'ularini mustahkamlaydi.

Bu jarayonda ustozlarning o'rni beqiyosdir. Ustoz-shogird an'anasi orqali milliy raqs san'ati avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Ustozlar nafaqat texnik bilim beradi, balki shogirdlarga san'atning ma'naviy mohiyatini ham tushuntiradi. Bu esa yoshlarning san'atga bo'lgan munosabatini yanada mustahkamlaydi.

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar ham milliy raqslarni targ'ib qilishda katta rol o'ynamoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, video platformalar va internet orqali milliy raqsar keng ommaga namoyish etilmoqda. Bu esa yoshlarning milliy san'atga bo'lgan qiziqishini oshirishda muhim vositaga aylangan.

Men ham bir necha yillardan buyon raqs san'ati yo'nalishida tahsil olib kelmoqdaman.

Shu vaqt davomida men raqs orqali xalqimizning boy ma'naviy merosini chuqurroq angladim. Men uchun raqs — bu faqat san'at emas, balki xalqning tarixi, ruhiyati va qadriyatlarining tirik ifodasidir.

Mening asosiy maqsadlarimdan biri milliy raqs san'atini asrab-avaylash, uni zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish va yosh avlodga yetkazishdir. Men kelajakda yosh iste'dodlarga yo'l ko'rsatib, milliy san'atimizning rivojiga o'z hissamni qo'shishni istayman.

Xulosa qilib aytganda, raqs san'ati milliy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishda eng samarali vositalardan biridir. U yoshlarni ma'naviy barkamol, vatanparvar, intizomli va milliy g'ururga ega insonlar qilib tarbiyalaydi.

Har bir yosh xoreografning vazifasi milliy merosni chuqur o'rganish, uni rivojlantirish va kelajak avlodga yetkazishdan iboratdir. Chunki milliy qadriyatlarni saqlash — bu millatning kelajagini saqlash demakdir.